O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 15 - mart 179-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 102-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi 2021-yil 13-sentabrdagi O‘RQ-713-son Qonuni) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 102-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Toshkent viloyati hokimining mazkur sohaga aloqador boshqa mavjud qarorlariga tegishli tartibda o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**